MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari..... 714 Aslanova Malohat Akramovna</p> <p>Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida..... 718 Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi</p> <p>Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish 721 Ne'matova Diyora Dilshod qizi</p> <p>Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati 725 Pirimova Nargiza Adilovna</p> <p>Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi..... 728 Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</p> <p>Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari 733 O'tahanova Manzura G'ofurovna</p> <p>Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context..... 736 Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</p> <p>Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni . 749 Altibayeva Malika Kuvandikovna</p> <p>Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari 752 Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</p> <p>Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar 757 Shukurova Nargiza Ikramovna</p> <p>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati 762 Xudoyberdiyev Sh. M.</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari..... 766 Esanbekova Fotima G'ayratjonovna</p> <p>Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин) 770 Багирова Паринисо Бобировна</p> <p>Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar..... 775 Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi</p> <p>Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili 780 Toshtemirova Nigora Ibrohimovna</p> <p>Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari 784 Tovoshova Ozoda Akmal qizi</p> <p>Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish..... 789 Kaxarova Ozoda Abdimominovna</p> <p>Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri... 793 M. B. Pulatova</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili 796 Maraimova Muxtabar Pulatovna</p> <p>Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari..... 801 Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna</p>
-------------------------------------	---



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish	818
<i>Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	

Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish	896
<i>Sobirov Avazbek Anvarovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish	903
<i>Sultonova Nurxon Anvarovna</i>	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari	907
<i>Tolipova Shohista Quدرات qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli	911
<i>Turg'unova Gulzoda Botir qizi</i>	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari	916
<i>Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna</i>	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari	919
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari	923
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi	927
<i>Yoqubova Gulhayo Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	931
<i>Bilolov Inomjon O'ktamovich</i>	
Karatening kelib chiqish tarixi	934
<i>Isayev Saidaliddinxon Islom o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar	937
<i>Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abduolim qizi</i>	
Родительские установки и развитие личности	941
<i>Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	945
<i>Yusupova Umida</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlari	950
<i>Kadirova Omaxon Sobirjonovna</i>	
Maktab ta'limi tizimida raqamli boshqaruv modelini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish	954
<i>Raxmatova Xurshida G'ofurovna, Tangirov Xurram Ergashevich</i>	
Особенности влияния психолога дошкольной образовательной организации на психическое развитие ребенка в игровой среде	961
<i>Камолдинова Диёра Жалолиддин қизи</i>	
Boshlang'ich maktabda sog'lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirish yo'llari	968
<i>Fayzidinova Maxsuda Akmalovna</i>	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy kompetentlikni shakllantirish: milliy va xalqaro pedagogik yondashuvlar	971
<i>N. R. Dushayeva</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda o'quvchilarning individual profili asosida moslashtirilgan didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish	975
<i>Oripova Dilnozaxon Abduvosi qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalari	980
<i>Rabbimova Munisxon Mustafoyevna</i>	
O'qitishda san'at vositalaridan foydalanish genezisi va zamonaviy tajribalari	983
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
Sun'iy intellekt muhitida ta'lim olish jarayonida talabalarning psixofiziologik holati va kognitiv yuklamasini baholash	989
<i>Turayeva Irodaxon Lochinbek qizi</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish – dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	993
<i>Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, R. Rayimova</i>	
The Influence of Digitalization on Written Communication.....	998
<i>Yusupova Sitara Ashuraliyevna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'qish savodxonligi va ona tili darslariga zamonaviy yondashuvlar.....	1002
<i>G'oyibnazarova Nargiza Raximjonovna</i>	
O'quvchilarning ijodiy ish faoliyati malakalarni shakllantirishga mos masalalarni tanlash metodlari.....	1005
<i>Artiqov Maqsud Bahodirovich, Sherimmatova Mahfuza Rasul qizi, Sarsenbayeva Zilola Kamiljon qizi</i>	
Mashq va topshiriqlar tizimi – fonetik ta'lim samaradorligini oshirish tizimi.....	1011
<i>Ganiyeva Dildora Sagdullayevna</i>	
Psixologik treninglarning uslubiy muammolari: nazariy va amaliy tahlil.....	1015
<i>Gulchehra Utamurodova Narbayevna</i>	
O'quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishda mental xaritalardan foydalanish imkoniyatlari.....	1018
<i>Islamova Karima Turdiyevna</i>	
Pedagogning kasbiy rivojlanishi va o'zaro xamkorlik.....	1023
<i>Karimova Gulchehra</i>	
Ta'lim boshqaruvida "yumshoq kuch" (soft skills): rahbar ayollarning psixologik va pedagogik mahorati...	1026
<i>Nomozova Roziya Omonovna</i>	
Ta'lim jarayonida psixologik muhitning ahamiyati.....	1029
<i>Qarshiboyeva Dilfuza Burliyevna</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanishning samaradorligi.....	1033
<i>Qo'chqorov Mirzavali</i>	
Tarbiyachi va bola o'rtasidagi muloqotning psixologik ahamiyati.....	1036
<i>Qodirova Malikaxon Kaxramonovna</i>	
Umumta'lim tizimida o'qituvchilarning sifat faoliyatini baholovchi tizim yaratish.....	1040
<i>Sharipova Umeda Tolibjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi nutq nuqsonli bolalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy logopedik va multimodal ta'lim texnologiyalarining samaradorligi.....	1045
<i>Hasanova Gulnoz Qosimovna, Jo'rayeva Gulibonu G'ayrat qizi</i>	



MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQ NUQSONLI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY LOGOPEDIK VA MULTIMODAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI

Hasanova Gulnoz Qosimovna
Buxoro davlat pedagogika instituti professori

Jo'rayeva Gulibonu G'ayrat qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi nutq nuqsonli bolalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy logopedik yondashuvlar hamda multimodal ta'lim texnologiyalarining pedagogik samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kommunikativ kompetensiyaning lingvistik, pragmatik, ijtimoiy va emotsional komponentlari yoritilib, ularning nutq nuqsoniga ega bolalarda shakllanish xususiyatlari ochib beriladi. Multimodal ta'lim texnologiyalarini logopedik mashg'ulotlarga integratsiyalash natijasida bolalarning nutq faolligi, muloqotga kirishish motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuv darajasi sezilarli darajada oshishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, nutq nuqsoni, kommunikativ kompetensiya, logopedik yondashuv, multimodal ta'lim texnologiyalari, nutq rivoji, ijtimoiy moslashuv.

Abstract: The effectiveness of modern speech therapy approaches and multimodal educational technologies in developing communicative competence in preschool children with speech disorders is analyzed. The study examines the structure of communicative competence, including linguistic, pragmatic, social, and emotional components, and identifies the specific features of their formation in children with speech impairments. The integration of multimodal technologies into speech therapy sessions is substantiated as an effective means of enhancing speech activity, communication motivation, and the level of social adaptation.

Key words: preschool education, speech disorders, communicative competence, speech therapy approaches, multimodal educational technologies, speech development, social adaptation.

Аннотация: Рассматривается эффективность современных логопедических подходов и мультимодальных образовательных технологий в развитии коммуникативной компетенции у детей дошкольного возраста с речевыми нарушениями. Особое внимание уделяется структуре коммуникативной компетенции, включающей лингвистический, прагматический, социальный и эмоциональный компоненты, а также особенностям их формирования у детей с нарушениями речи. Обосновывается целесообразность интеграции мультимодальных технологий в логопедическую практику, что способствует повышению речевой активности, мотивации к общению и уровня социальной адаптации детей.

Ключевые слова: дошкольное образование, речевые нарушения, коммуникативная компетенция, логопедические технологии, мультимодальное обучение, развитие речи, социальная адаптация.

KIRISH

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan ushbu davrda nutq, tafakkur, emotsional soha va ijtimoiy munosabatlar intensiv rivojlanadi. Nutq bolaning atrof-muhit bilan o'zaro aloqasini ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib, uning to'liq shakllanmasligi bola rivojlanishining barcha jabhalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarida nutq nuqsoniga ega bolalar sonining ko'payib borayotgani kuzatilmoqda. Ushbu holat zamonaviy pedagogika va logopediya fanlari oldida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan yangi, samarali va ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Kommunikativ kompetensiya bolaning muloqot jarayonida faol ishtirok etishi, o'z fikrini ifodalashi, suhbatdoshni tushunishi va ijtimoiy vaziyatlarga moslasha olishi bilan belgilanadi. Nutq nuqsoniga ega bolalarda ushbu kompetensiya yetarli darajada rivojlanmagan bo'lib, bu ularning tengdoshlari bilan munosabatlari va keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorgarligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy logopedik yondashuvlar bilan bir qatorda multimodal ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiya tushunchasi keng qamrovli yondashuv asosida talqin etiladi. Xususan, Dell Hymes kommunikativ kompetensiyani nafaqat grammatik bilimlar, balki tilni real ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llay olish qobiliyati sifatida izohlaydi¹. Ushbu yondashuv keyinchalik kommunikativ yondashuvning nazariy asosiga aylangan.

Shuningdek, Lev Vygotsky tomonidan ilgari surilgan sotsiokultural nazariyada bola nutqi va tafakkurining rivojlanishi ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanishi ta'kidlanadi². Olimning fikriga ko'ra, bola kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlikda o'zining "yaqin rivojlanish zonasi"ni kengaytiradi, bu esa kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Jean Piaget esa bolalar tafakkuri va nutqining rivojlanishini bosqichma-bosqich jarayon sifatida ko'rib, maktabgacha yosh davrida ramziy o'yin va nutqiy faoliyatning ustuvorligini alohida qayd etadi.³

Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiya shaxsning til va notil vositalari yordamida ijtimoiy muhit bilan samarali, maqsadga yo'naltirilgan va mazmunli o'zaro aloqani amalga oshirish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ushbu tushuncha nafaqat nutqiy faoliyatni, balki shaxsning muloqot jarayonidagi ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi va interaktiv faolligini ham qamrab oladi. Ilmiy adabiyotlarda kommunikativ kompetensiya shaxsning muloqotga kirishish, uni davom ettirish va muloqot jarayonida yuzaga keladigan vaziyatlarni adekvat hal etish salohiyati sifatida e'tirof etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiya ijtimoiy tajriba asosida, asosan, nutqiy faoliyat, mimika, imo-ishora, pantomimika, emotsional javoblar va o'yin faoliyati orqali shakllanadi. Ushbu yosh davrida muloqot bolaning shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omillardan biri bo'lib, u orqali bola atrof-muhitni anglaydi, tengdoshlari va kattalar bilan munosabat o'rnatadi hamda ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi. Shu bois kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi bolaning umumiy psixik rivoji, bilish jarayonlari va shaxsiy sifatleri bilan chambarchas bog'liqdir. Kommunikativ kompetensiya faqatgina so'zlash yoki lug'at boyligi bilan chegaralanmaydi. U bolaning eshitish va tinglash madaniyati, nutqni tushunish, muloqot jarayonida o'z fikrini ifodalash, suhbatdoshga munosabat bildirish, ijtimoiy vaziyatga moslashish va muloqotda faol ishtirok etish kabi murakkab ko'nikmalar majmuasini o'z ichiga oladi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda bu kompetensiya muloqot jarayonida bolaning tashabbus ko'rsatishi, dialogga kirishishi va kommunikativ vaziyatni mustaqil boshqarish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

So'nggi yillarda logopediya sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, shaxsga yo'naltirilgan va integrativ metodlarni joriy etish zarurligini ko'rsatmoqda. Zamonaviy logopedik yondashuvlarda bolaning individual rivojlanish trayektoriyasi, ehtiyojlari va imkoniyatlari asosiy mezon sifatida qaraladi. Ilmiy yangiliklardan biri sifatida erta aralashuv konsepsiyasining keng qo'llanilishi nutq nuqsonlarini barvaqt aniqlash va ularni samarali korreksiyalash imkonini bermoqda.

Shuningdek, neyropsixologik tadqiqotlar nutq va muloqot jarayonlarining miya faoliyati bilan uzviy bog'liqligini asoslab bermoqda. Ushbu ilmiy yutuqlar logopedik mashg'ulotlarda sensor, harakat va emotsional komponentlarni birgalikda rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

1 Hymes, D. On Communicative Competence.

2 Vygotsky, Mind in Society. Harvard University Press.

3 Piaget, J. The Origins of Intelligence in Children.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Multimodal ta'lim texnologiyalarini logopedik jarayonga integratsiyalash kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Ushbu yondashuv orqali bola nutqiy materialni nafaqat eshitadi, balki ko'radi, harakat orqali his qiladi va emotsional jihatdan qabul qiladi. Bu esa nutqiy faoliyatning mustahkamlanishiga hamda muloqot jarayonida erkinlikning oshishiga olib keladi.

Ilmiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, multimodal yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda muloqotga kirishish tezligini oshiradi, nutq faolligini kuchaytiradi va ijtimoiy moslashuv jarayonini jadallashtiradi. Ushbu jarayonda logoped-pedagogning roli muhim bo'lib, u multimodal vositalarni maqsadga muvofiq tanlashi va bolalarning individual xususiyatlariga moslashtirishi lozim.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida X. M. Po'latova maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish jarayonida logopedik mashg'ulotlarning tizimli va individual yondashuv asosida olib borilishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan mashg'ulotlar bolalarning nutqiy faolligini oshiradi.

Shuningdek, Sh. Sh. Sodiqova o'z tadqiqotlarida maktabgacha ta'limda interaktiv va multimodal metodlarning qo'llanilishi bolalarning kommunikativ faolligini sezilarli darajada rivojlantirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Maktabgacha yoshdagi nutq nuqsonli bolalar bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari zamonaviy logopedik va multimodal ta'lim texnologiyalarining yuqori pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlab bermoqda. Ushbu tadqiqotlar asosan eksperimental va nazorat guruhlarida asosida tashkil etilib, an'anaviy logopedik mashg'ulotlar bilan multimodal yondashuv asosida olib borilgan mashg'ulotlar natijalari solishtirma tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, multimodal texnologiyalar integratsiyalashgan ta'lim muhitida bolalarning nutqiy va kommunikativ rivojlanishi ancha tezlashadi hamda barqaror xarakter kasb etadi.

Tajriba-sinov jarayonida bolalarning so'z boyligi, nutq faoligi va kommunikativ ishtirok darajasi muntazam diagnostika asosida baholanib borilgan. Vizual, audiovizual, harakatli va sensor stimullarga asoslangan mashg'ulotlar natijasida bolalar yangi so'zlarni tezroq o'zlashtirgan, ularni dialogik va monologik nutqda faol qo'llay boshlagan. Ayniqsa, interaktiv o'yinlar, raqamli resurslar va multimediyaviy vositalari yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda nutqiy tashabbuskorlikni kuchaytirib, muloqotga kirishishdagi psixologik to'siqlarni kamaytirgan.

Zamonaviy tadqiqotlar kommunikativ kompetensiyaning faqat nutqiy jihatlar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy va emotsional rivojlanish bilan chambarchas bog'liqligini ham asoslab bermoqda. Multimodal mashg'ulotlar jarayonida bolalarda tengdoshlar bilan hamkorlik qilish, navbat kutish, suhbatdoshni tinglash va o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalari shakllangan. Ushbu o'zgarishlar bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasini oshirib, ularni keyingi ta'lim bosqichlariga psixologik va pedagogik jihatdan tayyorlashga xizmat qilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari multimodal yondashuvning yuqori samaradorligini ko'rsatdi.

Nutq rivojidagi o'zgarishlar

1. So'z boyligi sezilarli darajada kengaydi.
2. Tovush talaffuzi yaxshilandi.
3. Grammatik nutq shakllandi.

Kommunikativ rivojlanish natijalari

1. Muloqotga kirishish faolligi oshdi.
2. Dialogik nutq rivojlandi.
3. Mustaqil fikr bildirish kuchaydi.

Ijtimoiy-emotsional o'zgarishlar

1. O'ziga ishonch ortdi.
2. Muloqotdan qochish kamaydi.
3. Tengdoshlar bilan hamkorlik kuchaydi.

Quyidagi jadvalda multimodal ta'lim texnologiyalarining kommunikativ kompetensiya komponentlariga ta'siri aks ettirilgan.

1-jadval: Multimodal ta'lim texnologiyalarining kommunikativ kompetensiya komponentlariga ta'siri

Kommunikativ kompetensiya komponentlari	Kuzatilgan o'zgarishlar	Pedagogik ahamiyati
Lingvistik komponent	So'z boyligi kengaydi, grammatik tuzilishlar yaxshilandi	Nutqning ravonligi va aniqligi oshdi
Pragmatik komponent	Muloqot vaziyatiga mos nutq shakllandi	Ijtimoiy vaziyatlarda moslashuv kuchaydi
Ijtimoiy komponent	Tengdoshlar bilan muloqot faollashdi	Jamoaviy faoliyat samaradorligi oshdi
Emotsional komponent	O'ziga ishonch va nutqiy motivatsiya kuchaydi	Muloqotdan qochish holatlari kamaydi

Zamonaviy ilmiy manbalarda multimodal ta'lim texnologiyalarining uzoq muddatli ijobiy ta'siri alohida qayd etilib, bunday yondashuv asosida ta'lim olgan bolalar boshlang'ich maktab ta'limiga tezroq moslashishi, og'zaki nutqni erkin qo'llashi va o'quv faoliyatida faol ishtirok etishi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, multimodal texnologiyalar nafaqat korreksion vazifani bajaradi, balki bolaning umumiy kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga xizmat qiluvchi barqaror pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. Multimodal ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonida bir vaqtning o'zida bir nechta idrok kanallarini faollashtirishga asoslangan zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Ushbu texnologiyalar ko'rish, eshitish, harakat va sensor idrokni uyg'unlashtirish orqali bolaning bilimni qabul qilish va o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi.

So'nggi ilmiy izlanishlarda multimodal yondashuv bolalarda neyroplastiklikni faollashtirishi va nutqiy jarayonlarning tezroq shakllanishiga yordam berishi isbotlangan. Nutq nuqsonli bolalarda multimodal texnologiyalar qo'llanilganda artikulyatsiya apparati faoliyati yaxshilanadi, fonematik eshituv rivojlanadi va muloqotga bo'lgan qiziqish ortadi. Raqamli resurslar, interaktiv vizual materiallar va audiovositalar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda yuqori motivatsiya va faol ishtirokni ta'minlaydi.

Olingan natijalar zamonaviy ilmiy qarashlar bilan uyg'un holda quyidagilarni tasdiqlaydi:

- Multimodal yondashuv bir vaqtning o'zida bir nechta analizatorlarni faollashtiradi.
- Bu esa neyropsixologik jarayonlarni kuchaytiradi.
- Natijada nutq rivoji tezlashadi va barqarorlashadi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki:

- multimodal mashg'ulotlar bolalarda yuqori motivatsiya uyg'otadi;
- kommunikativ tashabbusni kuchaytiradi;
- ijtimoiy moslashuvni tezlashtiradi.

Mazkur natijalar ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. So'nggi ilmiy izlanishlarda kommunikativ kompetensiyaning integrativ xususiyati alohida ta'kidlanib, uning lingvistik, pragmatik, ijtimoiy va emotsional komponentlarining uyg'un rivojlanishi natijasida shakllanishi qayd etilmoqda. Lingvistik komponent nutq tovushlari, so'z boyligi va grammatik tuzilmalardan foydalanish qobiliyatini ifodalasa, pragmatik komponent muloqotning maqsadi va vaziyatiga mos nutqiy xatti-harakatlarni amalga oshirishni anglatadi. Ijtimoiy komponent bolaning muloqot jarayonida ijtimoiy me'yorlar va qoidalarga amal qilishini, emotsional komponent esa suhbatdoshning hissiy holatini tushunish va unga mos javob qaytarish qobiliyatini aks ettiradi.

Nutq nuqsonli bolalarda ushbu komponentlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishi ko'pincha kommunikativ faoliyatning cheklanishiga olib keladi. Bunday bolalarda nutqiy ifodaning sustligi, muloqotga kirishishda passivlik, emotsional javoblarning yetarli darajada shakllanmaganligi va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiyaning yetarli darajada rivojlanmaganligi bolaning keyingi ta'lim bosqichlarida o'quv faoliyati va ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli nutq nuqsonli bolalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish maxsus logopedik, psixologik va pedagogik ta'sir choralarini talab etadi. Bu jarayonda integrativ yondashuv asosida nutqni rivojlantirish mashg'ulotlari, ijti-



moiy muloqotga yo'naltirilgan o'yinlar, emotsional intellektni rivojlantiruvchi mashqlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy komponentlari o'zaro uyg'unlashib, bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji va faolligi bosqichma-bosqich rivojlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi nutq nuqsonli bolalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy logopedik va multimodal ta'lim texnologiyalaridan foydalanish pedagogik jarayon samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuv bolalarning nutqiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini kompleks ta'minlaydi hamda ularni keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli tayyorlash imkonini beradi.

Nutq nuqsonlari bolaning ijtimoiy faolligini pasaytiradi, tengdoshlar bilan o'zaro aloqani cheklaydi va o'yin faoliyatida yetakchilik qilish imkoniyatini kamaytiradi. Shu sababli logopedik ish jarayonida faqat nutqni to'g'rilash emas, balki kommunikativ kompetensiyani kompleks rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilanishi lozim. Zamonaviy ilmiy yangiliklarga tayangan holda multimodal texnologiyalarni logopedik amaliyotga keng joriy etish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Қодирова Ф. Р. Мактабгача ёшдаги болалар нутқини ривожлантириш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019.
2. Абдуллаева Ш. А. Мактабгача таълимда нутқни ривожлантиришнинг замонавий технологиялари. – Педагогик таълим, 2020.
3. Юсупова Н. М. Логопедик коррекция жараёнида коммуникатив компетенцияни шакллантириш. – Замонавий таълим, 2021.
4. Норбоева Г. Т. Мактабгача ёшдаги нутқ нуқсонли болаларда мулоқот кўникмаларини ривожлантириш. – Мактабгача таълим, 2022.
5. Каримова Д. Ш. Мактабгача таълимда мультимодал технологиялардан фойдаланиш имкониятлари. – Таълим ва инновация, 2023.
6. Саидова М. А. Инклюзив таълим шароитида логопедик ёрдамни ташкил этиш. – Тошкент, 2022.
7. Лалаева Р. И. Нарушения речи и их коррекция у детей дошкольного возраста. – Москва: Владос, 2018.
8. Волкова Л. С. Логопедия. – Москва: Академия, 2020.
9. Owens, R. E. Language Development: An Introduction (10th ed.). – Pearson, 2020.
10. Justice, L. M., & Ezell, H. K. Shared Storybook Reading. – Brookes Publishing, 2019.
11. Kuhl, P. K. Early language acquisition: Neural mechanisms and developmental pathways. – Nature Reviews Neuroscience, 2021.
12. Norbury, C. F., Tomblin, J. B., & Bishop, D. V. M. Developmental Language Disorders. – Cambridge University Press, 2021.
13. Po'latova, X. M. Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirishning zamonaviy metodlari. – Toshkent, 2020.
14. Sodiqova, Sh. Sh. Maktabgacha ta'limda innovatsion va interaktiv texnologiyalar. – Toshkent, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.